

**UZLUKSIZ TA‘LIMDA ERKIN VOHIDOV IJODINING O‘RGANILISHI****Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universiteti 1-kurs magistranti****SODIQOVA GULMIRA TO‘XTANAZAROVNA****Ish joyi: TTA akademik litsey**

Annotatsiya: Uzluksiz ta‘lim tizimining bosh bo‘g‘ini sifatida oliy ta‘lim tizimida o‘quv faoliyatini modernizatsiya qilish masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Talabalar o‘quv faoliyatini oshirishda adiblar ijoding o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada uzluksiz ta‘limda Erkin Vohidov ijodining o‘rganilishi xususida qisqacha so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Uzluksiz ta‘lim, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov, Abulla Oripov, Ibrohim G‘afurov, Norboy Xudoyberganov va boshqalar.

XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidov ijodi o‘ziga xosligi va ko‘p qirrali ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiyotini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g‘oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni poetik mushohadaga chorlaydi. Hayot haqiqatini urakkabligi va to‘lig‘icha, ziddiyatlari bilan boricha namoyon etish, o‘tkir ijtimoiy masalalarni dadil ko‘tarib chiqish, ma‘naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlash shoir ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir.

O‘zbekiston Qahramoni, sevimli xalq shoiri Erkin Vohidov ijodida jahon adabiyotning alohida o‘rni bor. Shoir jahon adabiyotining ulkan bilimdoni sifatida S.Esenin, M.Svetlov, A.Blok, R.Hamzatov, Hofiz Sherazi, Mirzo Bedil, Gyote kabi mumtoz so‘z san’atkorlari merosidan qilgan tarjimalari bilan o‘ziga xos ijodiy maktab yaratdi. Uning turli janrdagi o‘nlab asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilindi. E.Vohidov iste’dodli ijodkor, so‘z ustasi va mahorat egasi edi. U o‘zi kabi iste’dodli shoirlarning she’larini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Uning tarjima sohasidagi mahorati jahon adabiyotining shoh asarlaridan biri buyuk nemis shoiri Gyotening “Faust” asari tarjimasida yuqori cho’qqiga ko‘tarildi.¹



Shoir she`riyati XX asr oxiri va XXI asr boshlari lirikasida o‘z o‘rniga egaligi bilan o‘ziga xoslik kasb etsa, adibning ”Nido”, ”Ruhlar isyonii” kabi poemalari, ”Oltin devor” komediyasi badiiy saviyasi yuqoriligi, xalqimizning sevib mutolaa qiladigan asarlariga aylanib qolganligi bilan ajralib turadi. E. Vohidovning publitsistik asarlari orqali uning ko‘p sohalar bilimdoni ekanligi, mumtoz adabiyotni, xususan, Navoiy ijodiyotini chuqr o‘rganganligi, jahon adabiyoti bilimdoni ekanligi anglashiladi.²

Mustaqil ta‘lim talabalarning bilim olishdan maqsadlari va shu maqsadlarga qanday erishishlari – mavjud o‘quv resurslaridan foydalangan holda amaldagi o‘quv dasturlari doirasidagi materiallarni qanday o‘zlashtirishlari bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilishlarini nazarda tutadi.

Talaba o‘zi anglashi va harakat qilishi, o‘qituvchi esa, o‘z navbatida, talabalarning tadqiqot olib borish ko‘nikmalari, o‘tilgan materiallarni yanada chuqurroq o‘zlashtirish uchun qo‘sishma ma‘lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashi lozim. Talabalarni mustaqil faoliyatni tashkil etishga va uni bajarishga o‘rgatish ta‘lim samaradorligini oshiradi.³

Badiiy adabiyot tilini o‘rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko‘pdan buyon filologlarni qiziqtirib keladi. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir.

Badiiy asar tilida keng qamrovli til birlklari – fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga, ijodkorning so‘z boyligidan o‘ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

Erkin Vohidov ijodining o‘rganishi biz uchun yuksak ahamiyat kasb etadi. Adib hayoti va ijodi turli yozuvchilar olimlar tomonidan o‘rganildi. Quyida ulardan namunalarni ko‘rishimiz mumkin:

Ozod Sharafiddinov: “Erkin Vohidov poeziyasining o‘ziga xos janrlari, uslubiy ranglari yanada tiniqlashgani, ko‘p o‘rinlarda humor she’rning mag‘ziga singib katta haqiqatlarni ochishda muhim vositaga aylangani ayon ko‘rinib turibdi. Bu she’rlarda inson haqidagi o‘ylar ham, hayotiy tajribalardan chiqarilgan teran hikmatlar ham bor.



Ularda ba'zan shunday epik obrazlar ham uchraydiki, bu obrazlar hayotning muhim tomonlarini ochishga xizmat qiladi.⁴

Professor Ibrohim G‘afurov: “Xalq kunda takrorlaydigan so‘z o‘lmaydi. Erkin Vohidov xalqning yurak mulkiga aylangan she’riy so‘z egasi. Uni tolening manglayiga bitilgan so‘z degimiz keladi. Ha, tolega bitilgan so‘z. Uni topolgan esa, sizu bizga zamondosh, asrdosh, yelkadosh, baxtli shoir!”.⁵

Professor Norboy Xudoyberganov: “Erkin Vohidov-“Buyuk hayot tongi” dostoni bilan she’riyatimizda o‘ziga xos shoir tug‘ilganini isbotlagan bo‘lsa, “Yoshlik devoni” bilan iste’dodining yangi qirralarini ochishga bel bog‘lagan ijodkor ekanligini ko‘rsatdi. “Tirik sayyoralar”da esa yanada yangi bosqichga yetuklik dovoniga ko‘tarildi”.⁶

Abdulla Oripov: “Men g‘azalnavis shoirlar Erkin Vohidov, Jamol Kamol ijodlarida tilimizning jozibasini ko‘raman. Holbuki, ular madrasa ko‘rishmagan”.⁷

Professor Abdug‘afur Kamolov: “E. Vohidov-tabiatan xalqparvar, millatparvar shoir. O‘zbek xalqi kamsitilayotgan, tarixdagi buyuk o‘rni xas-po‘shlanayotgan bir paytda shoirning “O‘zbegin” asari yaratildi. Bu she’rda ham bahs, tortishuv ruhi seziladi. Boshqacha aytganda, shoir qalbidagi bahschi-kitobxon “O‘zbegin” qasidasi matnining ruh-ruhiga singib ketgan. Qasidani o‘qigan real o‘quvchi asar matni qurilmasidagi o‘quvchi bilan darhol til topishadi”.⁸

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rasulov A. Ilmi g‘aribani qo‘msab. –T.: Ma‘naviyat, 1998.
2. A. Qodiriy. Ijod mashaqqati. –T.: O‘qituvchi, 1995.
3. O‘zbek adiblari. Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2016-yil.
4. Ozod Sharafiddinov. Talant xalq mulki. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1979-yil.
5. Ibrohim G‘afurov. O‘ttiz yil izhori. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1987-yil.
6. Norboy Xudoyberganov. Haqiqat yog‘dulari. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1985-yil.



7. A. Oripov. Ehtiyot farzandi. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1988-yil.
8. Abdug‘ofur Kamolov. Tanqid. Talqin. Baholash. – Toshkent: Fan, 2006-yil.